

PAPER

TURLI TUZIMLI TILLARDAGI SO‘ROQ GAPLAR TADQIQI

Mirzaraxmatova Madina Hamidjon qizi^{1,*}

¹O‘ZMU 2-kurs magistranti

* mirzaraxmatovamadina86@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada so‘roq gaplarining lingvistik tipologiya jihatidan turli tizimli tillarga mansub bo‘lgan o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi tadqiq qilinishi, so‘roq gaplarning nazariy va pragmatik asoslari o‘rganilgan hamda so‘roq gaplardan foydalanishda o‘zbek, rus va ingliz tillari orasidagi umumiylik va farqlilik qiyosiy tahlil orqali tadqiq etilgan.

Key words: so‘roq gaplar, lingvistik tipologiya, nutqiy akt, analitik til, sintetik til, flektiv va agglyutinativ tillar, qiyosiy tahlil.

KIRISH

Til – insoniyat taraqqiyotining muhim vositasi sifatida turli xalqlar, millatlar va elatlar o‘rtasidagi aloqa tizimini ta’minlab kelmoqda. Dunyo tillari o‘zlarining grammatik qurilishi, fonetik tizimi, lug‘at tarkibi, sintaktik strukturasi va boshqa xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Shu bilan birga, barcha tillarda mavjud bo‘lgan universal hodisalar ham mavjud bo‘lib, ular orasida so‘roq gaplar alohida o‘rin tutadi.

So‘roq gaplar boshqa gap turlari orasida o‘zining pragmatik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Chunki so‘roq gaplar nutqiy muloqotda nafaqat axborot olish, balki turli xil kommunikativ maqsadlarni ifoda etish uchun ham qo‘llaniladi. Shuning uchun so‘roq gaplarning pragmatik xususiyatlarini o‘rganish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Ushbu maqolada tillar tipologiyasi nuqtai nazaridan so‘roq gaplarning pragmatik xususiyatlari o‘zbek, rus va ingliz tillari misolida o‘rganiladi. Bu tillar turli til oilalariga mansub bo‘lib, ular grammatik qurilishi jihatidan ham turli tizimlarni tashkil etadi.

Globallashuv jarayonlari, xalqaro munosabatlarning kengayishi, madaniyatlararo muloqotning jadallashuvi sharoitida turli tillardagi so‘roq gaplarni qiyosiy o‘rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Biz davlat tili taraqqiyotini jahondagi yetakchi xorijiy tillar va mamlakatimizdagi turli millat vakillarining tili va madaniyatini rivojlantirish bilan bog‘liq holda ko‘ramiz”. Chunki bugungi kunda til o‘rganish nafaqat lisoniy bilimlarni egallash, balki o‘sha til egasi bo‘lgan xalqning madaniyati, dunyoqarashi, fikrlash

tarzi bilan tanishish ham demakdir.

NATIJALAR

So‘roq gap – gaplarning kuzatilgan maqsadga ko‘ra turlaridan biri bo‘lib, so‘zlovchining biror noma‘lum va noaniq narsa-hodisani bilish uchun tinglovchiga murojaatini ifodalovchi, so‘roq mazmunli gap hisoblanadi. So‘roq gaplar tilda gaplarning kommunikativ maqsadga ko‘ra ajratiladigan asosiy turlaridan biri sanaladi va o‘ziga xos grammatik-semantik xususiyatlari bilan ajralib turadi. So‘zlovchi o‘ziga noma‘lum bo‘lgan voqea-hodisa haqida xabar bilish, ma‘lumot olish maqsadida ishlatiladigan gaplar so‘roq gap hisoblanadi. Bu turdagi gaplar tinglovchidan javob talab qilishi, shuningdek, javob talab qilmasdan, emotsional-ekspressiv ma‘nolarni ifodalashi mumkin.

So‘roq gaplar kundalik muloqotning muhim qismi hisoblanadi va nutqimizda faol qo‘llaniladi. So‘roq gaplarning tuzilishi, ifoda vositalari va semantik-pragmatik xususiyatlari tilshunoslikning muntazam o‘rganish obyekti bo‘lib kelmoqda.

So‘roq gaplar turli grammatik vositalar orqali shakllanadi. Bu vositalar so‘roq gaplarning grammatik, semantik va pragmatik xususiyatlarini belgilaydi.

Lingvistik tipologiya – tilshunoslikning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u dunyo tillarini ularning grammatik, fonetik va leksik xususiyatlari asosida tasniflash bilan shug‘ullanadi. Tipologik tasnif tillarning genetik qarindoshligiga emas, balki ularning struktural xususiyatlariga asoslanadi. Tipologik tadqiqotlar turli til oilalariga mansub bo‘lgan tillar

o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashga imkon beradi.

Lingvistik tipologiya tillardagi universal xususiyatlarni hamda til tizimlarining o'ziga xos jihatlarini o'rganadi. Bu fan sohasida V. fon Gumboldt, E.Sepir, J.Greenberg, B.Comrie, V.Plungyan kabi olimlarning ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, B.Comrie tillardagi universal xususiyatlarni aniqlash va turli tillardagi farqlarning tipologiyasini yaratish masalalarini ko'rib chiqqan. U tillarni morfologik tipologiya, sintaktik tipologiya va so'z tartibi tipologiyasi kabi yo'nalishlar bo'yicha tasniflashni taklif qilgan. V.Plungyan esa tillar tipologiyasining asosiy tushunchalari, tamoyillari va metodlarini bayon qilgan. U morfologik tipologiya va tillarning grammatik qurilishi o'rtasidagi bog'liqlik masalalarini chuqur tadqiq etgan.

Morfologik tipologiya nuqtai nazaridan tillar asosan analitik, sintetik va agglyutinativ tillarga ajratiladi. Bu tasnif grammatik ma'nolarning ifodalanish usullariga asoslanadi.

Analitik tillarda grammatik ma'nolar asosan yordamchi so'zlar, predloglar (ko'makchilar), artikllar va qat'iy so'z tartibi yordamida ifodalanadi. So'z shakllarining o'zgarishi nisbatan kam uchraydi. Zamonaviy ingliz tili analitik tillarga yorqin misol bo'la oladi.

Ingliz tilida, masalan, egalik shaklini ifodalash uchun 's qo'shimchasi yoki of predlogi qo'llaniladi: Tom's book yoki the book of Tom. Shuningdek, ingliz tilida zamonlar tizimi ko'pincha yordamchi fe'llar orqali ifodalanadi: I am reading, I have read, I will read. M.Dryer ingliz tilining SVO (subject-verb-object) tuzilishiga ega ekanligi va bu analitik tillarning tipik xususiyati ekanligini ta'kidlagan.

Sintetik tillarda grammatik ma'nolar asosan so'z shakllarining o'zgarishi, ya'ni turli affiksalar (qo'shimchalar) yordamida ifodalanadi. Sintetik tillar o'z navbatida flektiv va agglyutinativ tillarga bo'linadi.

Rus tili flektiv sintetik tillar guruhiga kiradi. Rus tilida grammatik ma'nolar affiksalar yordamida ifodalanadi va bir affiks bir necha grammatik ma'noni ifodalashi mumkin. Masalan, книга (kitob) so'zining книре shakli bir vaqtning o'zida birlik son va jo'nalish kelishigini ifodalaydi.

O'zbek tili agglyutinativ tillar guruhiga kiradi. Agglyutinativ tillarda grammatik ma'nolar so'zga ketma-ket qo'shiladigan affiksalar yordamida ifodalanadi va har bir affiks faqat bitta grammatik ma'noni ifodalaydi.

Masalan, o'zbek tilidagi kitoblarmizdan so'zida -lar ko'plik, -imiz egalik, -dan chiqish kelishigi qo'shimchalarini ifodalaydi. Har bir qo'shimcha aniq bir grammatik ma'noni ifodalaydi va ular o'zaro qo'shilib ketmaydi.

Nemis lingvisti P. von Polenz agglyutinativ tillarning xususiyatlarini sintetik va analitik tillarga qiyoslab o'rgangan.

Ingliz tilida so'roq gaplar tuzilishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Umumiy so'roq gaplar (General questions): Javob "ha" yoki "yo'q" bo'lishi mumkin bo'lgan so'roqlar. Masalan: "Are you a student?"

2. Maxsus so'roq gaplar (Special questions): So'roq olmoshi bilan boshlanadigan so'roqlar. Masalan: "Where do you live?"

3. Alternativ so'roq gaplar (Alternative questions): Ikki yoki undan ortiq variantlardan birini tanlashni talab qiladigan so'roqlar. Masalan: "Do you prefer tea or coffee?"

4. Ajratilgan so'roq gaplar (Tag questions): Darak gapga qo'shiladigan qisqa so'roq. Masalan: "You are a student, aren't you?"

5. Deklarativ so'roqlar (Declarative questions): Darak gap shaklidagi, lekin ohang orqali so'roq ma'nosini ifodalaydigan gaplar. Masalan: "You are coming tomorrow?"

Quirk va boshqalar ingliz tilidagi so'roq gaplarning tipologiyasini batafsil ko'rib chiqqanlar.

Rus tilida so'roq gaplar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. So'roq so'zli so'roq gaplar (Вопросительные предложения с вопросительными словами): Masalan: "Где ты живёшь?" (Qayerda yashaysan?)

2. So'roq so'zsiz so'roq gaplar (Вопросительные предложения без вопросительных слов): Masalan: "Ты студент?" (Sen talabamisan?)

3. Alternativ so'roq gaplar (Альтернативные вопросы): Masalan: «Ты пойдёшь в кино или в театр?» (Sen kinoga borasanmi yoki teatrgami?)

4. Ritorik so'roq gaplar (Риторические вопросы): Masalan: "Кто не любит музыку?" (Kim musiqani yoqtirmaydi?).

Shvedova N.Yu. rus tilidagi so'roq gaplarning struktur va semantik xususiyatlarini tadqiq qilgan.

O'zbek tilida so'roq gaplar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. So'roq olmoshili so'roq gaplar: Masalan: "Qayerda yashaysiz?"

2. So'roq yuklamali so'roq gaplar: Masalan: "Siz talabamisiz?" (-mi yuklamasi)

3. So'roq olmoshli so'roq gaplar: Masalan: "Kim keldi?"

4. Ohang yordamida ifodalanadigan so'roq gaplar: Masalan: "Keldingiz?"

G'ulomov A. va Asqarova M. o'zbek tilidagi so'roq gaplarning xususiyatlarini batafsil o'rgangan. O'z o'rnida, M.Madaminova matnning pragmatik tavsifida so'roq gaplarning lingvopragmatik tabiatida inversiya, parsellyatsiya va ellipsis hodisalarini o'rganganini hamda Z.Karimovning turli tizimli tillar hisoblanmish o'zbek va ingliz tillaridagi qiyosiq-tahliliy tadqiqotini alohida ta'kidlab o'tish mumkin.

So'roq gaplar barcha tillarda muloqotning muhim unsurlari hisoblanadi. Ular nafaqat ma'lumot olish, balki ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish, hurmat ko'rsatish, turli pragmatik maqsadlarni amalga oshirish va muloqot samaradorligini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi.

So'roq gaplar semantik jihatdan turli ma'nolarni ifodalaydi va shu asosda bir necha turlarga bo'linadi. Har bir tur o'ziga xos semantik xususiyatlarga ega bo'lib, muloqotda o'z o'rniga ega.

1. Sof so'roq gaplar

2. Ritorik so'roq gaplar

3. Qayta so'rash mazmunidagi so'roq gaplar

4. Taxminiy so'roq gaplar

5. Alternativ so'roq gaplar

6. Emotsional-ekspressiv so'roq gaplar

O'zbek tilshunoslari N.Mahmudov va A.Nurmonovlar tomonidan emotsional-ekspressiv so'roq gaplarning quyidagi semantik turlari ajratilgan:

Table 1. Emotsional-ekspressiv so'roq gaplarning semantik turlari

Sema	Misol
Taajjub semasi	"Hamma aytgan gaplari rostmi?"
Gumon semasi	"Kechgacha ulgurarmikanman?"
G'azab semasi	"Endi men o'g'ri bo'ldimmi?"
Kinoya semasi	"Pichoqni shu Xolmat uradimi?"
Buyruq semasi	"Nega yig'laysan?"
Darak semasi	"Uyga erta kelibsan, shuni qilib qo'ymadingmi?"
Tashvish semasi	"Pojarliklar qildan qiyiq axtarishmasmikan?"

O'zbek, ingliz va rus tillari nafaqat grammatik tuzilishi jihatidan, balki madaniy-tarixiy rivojlanishi jihatidan ham farqlanadi. Bu farqlar madaniyatlar o'rtasidagi muomala odoblari, ijtimoiy iyerarxiya tushunchalari va tarixiy an'analar bilan chambarchas bog'liq. Har uch tilda ham rasmiy va norasmiy muloqotda so'roq gaplarning qo'llanilishida sezilarli farqlar mavjud. Rasmiy muloqotda so'roq gaplar ko'pincha to'liq grammatik shakldagi, xushmuomalalik iboralari bilan boshlangan va hurmat ohangidagi so'roqlar shaklida bo'ladi.

Norasmiy muloqotda esa so'roq gaplar qisqartirilgan, erkin so'z tartibidagi va jonli so'zlashuvga xos bo'ladi.

XULOSA

O'zbek, rus va ingliz tillari turli til oilalariga mansub bo'lib, ular grammatik qurilishi jihatidan ham turli tizimlarni tashkil etadi. Ingliz tili analitik tillar guruhiga, rus tili flektiv sintetik tillar guruhiga, o'zbek tili esa agglyutinativ sintetik tillar guruhiga kiradi. Ushbu tillarning so'roq konstruksiyalarini qiyosiy o'rganish nafaqat ular o'rtasidagi farqlarni, balki universal pragmatik xususiyatlarni ham aniqlashga yordam beradi.

Ushbu tillardagi so'roq gaplar tipologik jihatdan turlicha shakllanadi, ammo ularning xususiyatlari ko'p hollarda universal xarakterga ega. Barcha tillarda so'roq gaplar nafaqat axborot olish, balki iltimos qilish, buyruq berish, taajjubni ifodalash, ta'kidlash kabi turli vazifalarni bajaradi. Shu bilan birga, turli tillarda so'roq gaplarning o'ziga xos pragmatik xususiyatlari ham mavjud. Bu xususiyatlar tilning strukturaviy xususiyatlari, grammatik qurilishi va lingvomadaniy omillar bilan bog'liq.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbek tili bayrami munosabati bilan O'zbekiston xalqiga tabrigi. 21-oktabr, 2023-yil. <https://president.uz/oz/lists/view/6784>.
2. Ёўлдошев М. Бадиий матн лингвопоетикаси. – Тошкент: «Фан», 2008, 137-бет.
3. Comrie, B. (1989). *Language Universals and Linguistic Typology: Syntax and Morphology*. Chicago: University of Chicago Press.
4. Plungyan, V. (2018). *Why Languages Are Different: A Guide to Linguistic Typology*. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Sapir, E. (1921). *Language: An Introduction to the Study of Speech*. New York: Harcourt, Brace Co.
6. Dryer, M.S. (2013). Order of Subject, Object and Verb. In: Dryer, M.S. Haspelmath, M. (eds.) *The World Atlas of Language Structures Online*. Leipzig: Max Planck Institute for Evolutionary Anthropology.
7. Jakobson, R. (1971). *Selected Writings II: Word and Language*. The Hague: Mouton.
8. Abduraxmonov, G'., boshq. (1996). *O'zbek tilining amaliy grammatikasi*. Toshkent: O'qituvchi.
9. Polenz, P. von (2000). *Deutsche Sprachgeschichte vom Spätmittelalter bis zur Gegenwart*. Berlin: de Gruyter.
10. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., Svartvik, J. (1985). *A Comprehensive Grammar of the English Language*. London: Longman.
11. Shvedova, N.Yu. (Red.) (1980). *Русская грамматика. Том II: Синтаксис*. Москва: Наука.
12. G'ulomov, A., Asqarova, M. (1976). *Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis*. Toshkent: O'qituvchi.
13. Madaminova M.S. *Matn pragmatik tavsifida sintaktik birliklarning o'rni. (Monografiya)* – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 100 b.
14. Sentence-Words And Their Grammatical Analysis (The Principle Of Respect: On The Basis Of Comparison Of Uzbek And English Languages), *International Journal of Research*, pp. 110–117, 2020.
15. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Т.: «Ўқитувчи», 1995, 29-бет.